YORDAMCHI SO‘Z TURKUMLARI:

Ko‘makchilarning grammatik va uslubiy xususiyatlari

Navoiy davlat universiteti

Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi

Mansurova Rushana

Annotatsiya (O‘zbekcha): Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi yordamchi so‘z turkumlari, xususan, ko‘makchilarning grammatik va uslubiy xususiyatlari, ularning mustaqil so‘zlar bilan birikish xususiyatlari hamda gapdagi vazifalari tahlil qilingan. Maqolada Sh. Abdurahmonov, M. Asqarova va E. Qilichev kabi tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari asosida ko‘makchilarning turlari, ularning sintaktik vazifalari hamda grammatiklashish jarayoni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Yordamchi so‘zlar, ko‘makchi, asosiy ko‘makchilar, otlashgan ko‘makchilar, sintaktik vazifa, grammatiklashish.

Аннотация: В данной статье анализируются грамматические и стилистические особенности служебных частей речи в современном узбекском литературном языке, в частности послелогов, их сочетаемость с самостоятельными частями речи и функции в предложении. На основе научных взглядов таких лингвистов, как Ш. Абдурахманов, М. Аскарова и Э. Кылычев, освещены виды послелогов, их синтаксические функции в предложении и процесс грамматикализации.

Ключевые слова: Служебные части речи, послелог, основные послелоги, отадъективные послелоги, синтаксическая функция, грамматикализация.

Abstract: This article analyzes the grammatical and stylistic features of auxiliary parts of speech in the modern Uzbek literary language, particularly postpositions,

their combinability with independent parts of speech, and their functions in sentences. Based on the scientific views of linguists such as Sh. Abdurahmonov, M. Asqarova, and E. Qilichev, the types of postpositions, their syntactic functions in a sentence, and the process of grammaticalization are highlighted.

Keywords: Auxiliary words, postposition, main postpositions, nominalized postpositions, syntactic function, grammaticalization.

Kirish

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘zlar o‘zining leksik va grammatik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga bo‘linadi. Mustaqil so‘zlardan farqli ravishda, yordamchi so‘zlar atash ma’nosiga ega bo’lmagan, ma’lum so’roqqa javob bo’lmaydigan,gap bo’lagi vazifasida kelmaydigan, alohida lug‘aviy (leksik) ma’noga ega bo‘lmaydigan va so‘zlar yoki gaplar o‘rtasidagi munosabatni ifodalashga xizmat qiladigan so’zlardir. Shunday yordamchi so‘zlardan biri ko‘makchilar bo‘lib, ular o‘ziga xos grammatik vazifasi bilan tilimizda muhim o‘rin tutadi. Ular ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshdan keyin kelib, hokim so’zga bog’lash uchun xizmat qiluvchi so’zlardir.

I. Asosiy qism: Ko‘makchilarning nazariy asoslari

O‘zbek tilshunosligida ko‘makchilar – mustaqil so‘zlar (ot, olmosh) bilan birikib, ularga ergashuvchi so‘z shakllari bilan bog‘lanadigan va gapda turli munosabatlarni (sabab, maqsad, payt, o‘rin, birgalik, vosita va boshqalar) yuzaga keltiruvchi yordamchi so‘z turkumidir. Ular o’zgarmaydi, turlanmaydi yoki yasalmaydi, ma’noli qismlarga ajralmaydi.

Ko’makchilar xuddi kelishiklar kabi tobe so’zni hokim so’zga bog’lashga xizmat qiladi, o’zidan oldingi so’z bilan bitta so’roqqa javob bo’ladi. Masalan: Siz bilan hamsuhbat bo’lmasdan avval boshqacha xayolda edim.

Oʻzbek tilshunosligining yetakchi mutaxassislari, xususan, akademik Sh. Abdurahmonov va M. Asqarovaning "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" (1980) hamda E. Qilichevning "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" oʼquyv qoʼllanmasidan ,R.Sayfullayeva v.b.ning "Hozirgi oʻzbek adabiy tili" (T.: 2009) darsliklarida koʻmakchilarning ikki yirik guruhi ajratib koʻrsatilgan:

A. Asosiy koʻmakchilar

Asosiy koʻmakchilar bosh kelishikdagi ot va olmoshlar bilan birikib keladi. Bularga quyidagilar kiradi:

Bilan: Birgalik, qurol va vosita maʼnosini bildiradi. Misol: U doʻsti bilan kutubxonaga bordi.

Uchun: Maqsad va sabab maʼnosini bildiradi. Misol: Vatan uchun jon fido.

Sari : Harakat yoʻnalishini bildiradi. Misol: Togʻ sari yoʻl oldik.

Sayin: Takrorlanish va davomiylikni bildiradi. Misol: Kun sayin ob-havo isib bormoqda.

Qadar , chogʻli: Daraja va miqdor maʼnosini anglatadi. Misol: Tong qadar suhbatlashdik.

B. Otlashgan koʻmakchilar

Otlashgan koʻmakchilar kelishik qoʻshimchalarini olgan soʻzlar bilan birikib keladi. Bular oʻzining kelib chiqishi koʻra mustaqil soʻzlarga borib taqaladi va tarixan grammatiklashish jarayonini boshidan kechirgan:

Joʻnalish kelishigidagi soʻzlar bilan: qaratilgan, nisbatan, koʻra. Oʻrin-payt va chiqish kelishigidagi soʻzlar bilan: orqali, tufayli, sababli, koʻra.

Joy-makon maʼnosini bildiruvchi koʻmakchilar: oldida, yonida, ustida, ichida.

II. Ilmiy adabiyotlar tahlili

Olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinganda, koʻmakchilarni oʻrganishda quyidagi manbalarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi:

Sh. Abdurahmonov va M. Asqarova ("Hozirgi oʻzbek adabiy tili", 1980): Ushbu asarda yordamchi soʻzlar tizimi, xususan, koʻmakchilarning mustaqil soʻzlardan farqi va ularning gapdagi sintaktik vazifalari chuqur ilmiy asoslangan. Koʻmakchi vazifasida kelayotgan soʻzlarning leksik maʼnosini yoʻqotish jarayoni va grammatiklashish bosqichlari atroflicha tahlil qilingan.

Mualliflarning koʻmakchi haqidagi asosiy qarashlarini quyidagi tizimli bandlarga ajratish mumkin:

1. Koʻmakchining Taʼrifi va Vazifasi

Mualliflar koʻmakchiga quyidagicha tavsif beradilar:

Vazifasi: Ot yoki otlashgan soʻzlardan keyin kelib, ularni boshqa soʻzlarga (asosan feʼllarga) tobe bogʻlash uchun xizmat qiladi.

Xususiyati: Koʻmakchilar lugʻaviy maʼnoga ega emas, gapda mustaqil boʻlak boʻlib kela olmaydi va soʻroqqa javob bermaydi. Ular kelishik qoʻshimchalari bilan maʼnodoshlik hosil qiladi.

2. Koʻmakchilarning Kelib chiqishiga koʻra turlari

1980-yilgi nashrda koʻmakchilarning shakllanish jarayoniga katta eʼtibor berilgan:

Sof koʻmakchilar: Faqat koʻmakchi vazifasida qoʻllanadigan, lugʻaviy maʼnosini butunlay yoʻqotgan soʻzlar: bilan, uchun, kabi, singari, sayin, qadar, orqali, tufayli.

Vazifadosh (Oʻtish bosqichidagi) koʻmakchilar: Aslida boshqa soʻz turkumiga mansub boʻlib, maʼlum kontekstda koʻmakchi vazifasini bajaruvchi soʻzlar:

Otdan shakllanganlar: old, ust, qosh, yon, ket, ich, tush kabi soʻzlarning kelishik shakllari (yonida, ustidan).

Fe’ldan shakllanganlar (ravishdoshlar): ko‘ra, qarab, yarasha, tortib, qaraganda, deya.

Abdurahmonov va Asqarova ko‘makchilarning o‘zidan oldingi so‘zni ma’lum bir kelishikda bo‘lishini talab qilishini (reksiya) alohida ko‘rsatib o‘tadilar:

R. Sayfullayeva va boshqalar ("Hozirgi o‘zbek adabiy tili", 2009): Darslikda ko‘makchilarning sintaktik aloqani ta’minlashdagi roli, ularning fe’l va otlar bilan birikish imkoniyatlari zamonaviy tilshunoslik talablari asosida yoritib berilgan.

1. Ko‘makchining umumiy ta’rifi

Darslikda ko‘makchiga yordamchi so‘zning bir ko‘rinishi sifatida qaraladi. Unda olimlarning quyidagi ilmiy xulosalari umumlashtirilgan:

A.N. Kononov ta’rifi: Ko‘makchilar shunday bir guruh so‘zlarki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol-vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo‘nalish, o‘xshatish kabi munosabatlarning yaratilishida xizmat qiladi.

Sh. Shoabdurahmonov ta’rifi: Ko‘makchi — obyektning obyektga yoki obyektning predikatga bo‘lgan turli grammatik munosabatini ko‘rsatuvchi yordamchi so‘zdir.

2. Ko‘makchining vazifaviy xususiyatlari

Mualliflar ko‘makchining o‘zbek tili grammatikasidagi o‘rnini quyidagicha belgilashadi:

Tobe munosabat: Ko‘makchi mustaqil so‘zlar orasidagi tobe munosabatni ifodalashga xizmat qiladi.

Kelishiklar bilan munosabati: Ko‘makchi kelishik ma’nosini aniqlashtirish va to‘ldirish uchun xizmat qiladi. Kelishik affikslari ko‘pincha umumiy ma’no ifodalasa, ko‘makchi o‘sha ma’noni konkretlashtiradi.

Misol: "Mashinada keldim" (kelishik) – "Mashina bilan keldim" (koʻmakchi vosita maʼnosini aniq koʻrsatmoqda).

3. Koʻmakchining shakliy turlari

Kitobda koʻmakchilar shakli va bajaradigan vazifasiga koʻra quyidagi turlarga boʻlinadi:

a) Sof koʻmakchi: Uchun, bilan, sari, qadar, kabi, singari, sayin, orqali. Bular lugʻaviy maʼnosini butunlay yoʻqotgan.

b) Yarim koʻmakchi: Aslida mustaqil soʻz boʻlib, koʻmakchi vazifasiga oʻtgan soʻzlar.

d) Qoʻshimchasimon koʻmakchi: Kelishik qoʻshimchalari bilan vazifadosh boʻlib qolgan yoki ularning qisqargan shakllari (masalan, -la).

4. "Bilan" koʻmakchisining xususiyatlari

Darslikda bilan koʻmakchisiga eng koʻp qoʻllanuvchi va sermaʼno birlik sifatida alohida toʻxtalib oʻtilgan:

Etimologiyasi:

Prof. A.N. Kononov va boshqa turkiyshunoslar fikricha, bilan koʻmakchisi "birlan" soʻzidan kelib chiqqan. Sheʼriyatda uning ila, -la shakllari (masalan: Baxt ila toʻlib-toshgan...) uchraydi.

Ifodalaydigan maʼnolari:

Birgalik: Shaxslar yoki predmetlarning birgalikda harakat qilishini ifodalaydi. (Koʻpchilik bilan odam oʻzini kuchli sezadi.)

Vosita: Harakatni bajarish qurolini koʻrsatadi. (Eshikni kalit bilan ochdi.)

Payt: Bir harakatning ikkinchisi bilan bir vaqtda sodir boʻlishi. (Qoʻngʻiroq chalinishi bilan oʻquvchi sinfga kirdi.)

Sabab: Harakatning yuzaga kelish omili. (Ular: "Gulnor oʻz ajali bilan oʻldi...", - deyishdi.)

Holat: Harakatning bajarilishidagi vaziyatni bildiradi. (Onamning mehr bilan boqib turgan koʻzlari...)

5. Koʻmakchi-bogʻlovchi tushunchasi

R. Sayfullayeva darsligida bilan koʻmakchisining bogʻlovchi bilan chegaradoshligi masalasi muhim oʻrin tutadi:

Bilan baʼzan va, hamda, shuningdek kabi bogʻlovchilar vazifasida keladi. Shuning uchun u "koʻmakchi-bogʻlovchi" atamasi ostida ham oʻrganiladi.

Tahliliy farqi: Koʻmakchi vazifasidagi bilan oʻrnida kelgan birliklar (va kabi) har doim ham aynan bir xil maʼno bermaydi. Masalan, "Qiz bilan yigit chiqdi" deganda ular birga yoki alohida ekani bilan va va qoʻllanilishiga qarab farqlanishi mumkin.

A. Abduazizov ("Oʻzbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi", 1992): Tilshunoslikda tovush oʻzgarishlari va shakllanish tamoyillarini oʻrganishda qoʻmakchilarning fonetik variantlari (masalan, bilan - la, uchun-chun)ning shakllanishiga oid masalalar yoritiladi.

1. Morfonologik tahlil obyekti sifatida

A. Abduazizov soʻz shakllari va yordamchi vositalarning birikishini oʻrganar ekan, koʻmakchilarni sintagmatik munosabatlarni shakllantiruvchi birliklar sifatida koʻradi. Uning qarashlariga koʻra:

Koʻmakchilar mustaqil soʻzlar bilan birikkanda, ular oʻrtasida muayyan fonetik-morfonologik hodisalar (masalan, urgʻuning koʻchishi, tovush moslashuvlari) sodir boʻlishi mumkin.

Ayniqsa, "bilan" koʻmakchisining qisqargan "-la" shakli yoki "ila" variantlarining qoʻllanilishi sof morfologik emas, balki morfonologik hodisa sifatida ham talqin qilinadi.

2. Koʻmakchi va Kelishik munosabati

Muallif tilni tizim (sistema) sifatida oʻrganish tarafdori boʻlgani uchun, koʻmakchilarni kelishiklar bilan bir xil sathdagi grammatik koʻrsatkichlar deb hisoblaydi:

Kelishiklar sintaktik munosabatni soʻz oxiriga qoʻshiluvchi affikslar orqali ifodalasa, koʻmakchilar buni alohida soʻz shaklida bajaradi.

Abduazizov bu oʻrinda koʻmakchilarni "analitik koʻrsatkichlar" sifatida baholaydi (yaʼni, maʼno soʻzning oʻzida emas, unga ergashib kelgan yordamchi soʻz orqali yuzaga chiqadi).

3. Yordamchi soʻzlarning shakllanishi

1992-yilgi kitobda morfemalar zanjiri va ularning turlari haqida gap ketganda, muallif koʻmakchilarni quyidagicha tasniflashga yaqin turadi:

Leksik-grammatik xususiyati: Koʻmakchilarning lugʻaviy maʼnosidan mahrum boʻlib, faqat grammatik vazifa bajarishga oʻtishi — bu soʻzning leksik sathdan grammatik sathga oʻtish jarayonidir.

Koʻmakchi-otlar: Ichida, ustida, yonida kabi soʻzlarning koʻmakchi boʻlib shakllanishida morfonologik oʻzgarishlar (egalik va kelishik qoʻshimchalarining qotib qolishi) muhim rol oʻynaydi.

III. Koʻmakchilarning gapdagi vazifasi

Koʻmakchilar mustaqil soʻz bilan birikib, gapda quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

To‘ldiruvchi vazifasida: U ukasi uchun sovg‘a oldi. (kim uchun? — to‘ldiruvchi).

Hol vazifasida: Bahor nafasi bilan tabiat uyg‘ondi. (qanday yo‘l bilan? — hol vazifasida).

Aniqlovchi vazifasida: Dengiz sari yo‘l oldik.

Xulosa

Ko‘makchilar o‘zbek tilining boy grammatik qurilishini ta’minlovchi asosiy yordamchi vositalardan biridir. Ularni o‘rganish nutqimizni ravonlashtirish, fikrni aniq va mantiqiy ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlar ta’kidlaganidek, yordamchi so‘zlar tizimini chuqur o‘rganish tilning ichki imkoniyatlarini yanada kengroq tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdurahmonov Sh., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1980.

2.Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2009.

3.Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2009.

4.Abduazizov A. O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

5.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (5 jildlik). – Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008.

6.Hozirgi o‘zbek tili faol so‘zlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: "Sharq", 2001

7.Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1960. (O‘zbek ko‘makchilari haqidagi eng mukammal nazariy manbalardan biri).